

BOSHQARUVDA NIZOLI VAZIYATLAR PSIXALOGIYASI

G.R.Tojiboyeva

Andijon davlat universiteti Umumiy psixologiya kanfedrasi dotsenti

Azimjonov Shohruxbek Ulug'bek o'g'li

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 202-guruh talabasi

azimjonovshohrux43@gmail.com

@Shoh_1199

Telefon: +998(93)2381999

Annotatsiya: Boshqaruv tizimida umuman olganda barcha sohalarda nizo va nizoli vaziyatlar bo'lib turadi, bizning ko'zimizga yaxshi holat bo'lib ko'rinmasada lekin, nizo va tortishuvlar orqali ko'plab kashfiyotlar, yangi-yangi ilg'or g'oyalar shakillanadi. Ammo tangani ikkinchi tomoni ham bor deganidek nizolar ortidan jinoyatli holatlar ham bo'lishi mumkun. Bu maqolada asosiy etiborni qaratadigon joyi nizo va tortishuvlar bo'lishi kerak faqat va faqat yangiliklar yaratish yo'lida, hali kashf etimagan g'oyalarni kashf etish yolida.

Kalit so'zlar: Dialektik, Nizo, Ziddiyat, Sotsiometrya

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida va jabhalarida, odamlar orasida doimo o'zaro kelishmovchiliklar, ziddiyat va nizoli vaziyatlar mavjud bo'lib kelgan. Dialektik materializm qonuniyatlariga binoan har qanday rivojlanish va yuksalish asosida qarama-qarshilik va ziddiyat yotadi. Shaxs, jamiyatda taraqqiyotini amalga oshiruvchi asosiy kuch xisoblanadi. Shuning uchun ham nizo va ziddiyat jamiyat rivojlanishini asosiy omillari hisoblanadi. Dastlab nizo haiqida ma'limot bersak. Nizolar psixologiyasi haqida fikr yuritar ekanmiz, nizo o'zi nima? degan savol tug'ilishi tabiiy.

Nizo lotincha «konflikt» so'zidan olingan bo'lib, «to'qnashish», ya'ni maqsad, qiziqish, nuqtai nazar, fikrlar, kishilarning o'zaro ta'sirlashuvidagi qarama-qarshi yo'nalishlar borasida to'qnashishlaridan iborat.

Nizo-muloqot ishtirokchilarining xar biri uchun muxum bo'lgan muamoni hal etish vaqtida ular o'rtasida vujudga kelgan qarama-qarshilik va kurashning keskin kuchayib ketish jarayonidir.

Jahonda, globallashuv jarayoni jadal sur'atlar bilan kechayotgan ayni bir paytda jamoa bilan samarali muloqot o'rnata bilish, jamoalarda yuz beradigan nizoli vaziyatlarni to'g'ri taxlil qilish hamda kelib chiqish sabablarini chuqur o'rganish bugungi kun psixolog va sotsiologlar oldida turgan muhim muamolardan bir bo'lib qolmoqda desak mubolag'a bolmasa kerak.

Ziddiyat va nizolar insoniyat paydo bo‘lgan davrdanoq mavjud bo‘lib, uni ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish borasidagi ilk qarashlar ham o‘z

tarixiga ega. Tobora takomillashib borayotgan hayot tarzi, mehnat faoliyati, shaxslararo munosabat muhitining o‘zgarayotganligi ziddiyatlarning ham o‘ziga xos tomonlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Ziddiyat, nizo haqidagi dastlabki konsepsiyalar XIX–XX asrlarda vujudga kelib, uning yechimlarini topish yo‘llari bo‘yicha qo‘yilgan qadamlar o‘tgan asrning oxirlarida bir qadar salmoqli bo‘ldi. Bugungi kunda psixologiya va ijtimoiy psixologiyada Ershob A.A „Shaxs va jamiyat“ (Jamoadagi shaxslararo nizoli vaziyatlarni bartaraf etish), Kichanov I.M „Ziddiyatlar“ (yoqlaydigonlar va qarshilar.) Smolin G.L „Ziddiyatlarni tadqiq qilish tomoillari“ kabi bir necha olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ushbu tadqiqotlar orasida ruminyalik ruxshunos olim Jakob Morenning olib borgan izlanishlari katta ahamiyat kasb etadi. O‘z tadqiqotlarini kichik guruhlarda olib borgan Moreno „sotsiyometriya“ metodini ishlab chiqadi. „Sotsiyometriya“ lotinch “so cietas” – jamiyat va “metreo” – o‘lchayman sozlaridan olingan bo‘lib, guruhdagi shaxslararo munosabatlarni o‘lchashga qaratilgan texnikadir. Nazaryani sotsiometriya uning muallifini fikricha, jamiyatdagi barcha nizolar, muamolarni yechishning usullaridan biri – insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish va shunga ko‘ra, jamiyatda o‘zgarishlarni amalga oshirish kerak degan g‘oyaga asoslangan. Amalda esa har bir jamoalarda maxsus sotsiyometrik so‘rovlari o‘tkaziladi va uning natijalarini tashkiliy jarayonlarda inobatga oladi. Lekin ohirgi payitlarda sotsiyometriyaga nazar o‘zgargan, uning byuzlab madifikatsiyalari, turlari ishlab chiqildi. Axamiyatlisi shuki, uning haqiqatdan ham guruhdagi manaviy – psixologik muxitga tasir etuvchi emotsional munosabatlarni aniqlashda mutaxassis tomonidan ishlatish mumkun. Bunda har bir guruh a‘zosi tanlov sharoitga solinadi, yani u yoki bu sharoitda biron bir ishni bajarishda o‘ziga yoqqan (yoqmagani ham) sherigini guruhdoshlari orasidan tanlashi kerak. Masalan: Maktab o‘quvchilariga „Kim bilan dars tayorlashni xohlarding?“ , “Kim bilan maktab yer uchaskasi xasharda yonma-yon turib ishlashni hohlaysan?“, mehnat jamoalarida esa boshliq tomonidan berilgan muhim topshiriqni ikki kishi bajarishi kerak bo‘lsa, sheriklikka kimni olgan bo‘lardingiz? , talabalarda: Xorijga o‘qishga yuborishsa kursdoshlaringdan kimni senga sherik qilib berishini istaysan? Shu van shunga o‘xshash savollar bilan murojat qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.B.Rahmonova. Boshqaruv psixologiyasi fanidan ma‘ruzalar matni-Buxoro 2010.
 2. R.H.Dushanov, Yo.A.Parfiyev “Kasbiy psixologiya” Ma‘ruzalar kursi. Toshken 2010.
 3. G‘.H.Sharofutdinova “Muloqot psixologiyasi” - Termiz 2008.
 4. Pedagogika va psixologiya fanidan ma‘ruzalar matni - Toshkent 2010.
 5. F.A.Akramova “Ijtimoiy psixologiya” – T. 2007
 6. Яровицкий В. “Сто великих психологов” – М. : “ Вечер” . 2004
1. www.effecton.ru
 2. www.ejop.org